

NUROBOD TUMANI AHOLISINING JOYLASHUVI VA DEMOGRAFIK VAZIYATI TAHLIL

Samandarov Mehroj Orif o'g'li– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU
Geografiya magistranti. mehrojsamandarov@gmail.com
Egamberdieva Matluba Mamanazarovna - Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zMU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n.
egamberdiyevam@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyati Nurobod tumanining aholisi soni, joylashuvi va demografik vaziyati tahlil qilinadi. Tuman aholisi tabiiy o'sishi, migratsiya jarayonlari hamda yosh tarkibi kabi muhim demografik ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Aholining MFYlar bo'yicha taqsimoti va urbanizatsiya jarayonlarining tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Aholi soni, yosh tarkibi, demografik jarayonlar, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya, urbanizatsiya, Mahalla fuqarolar yig'ini(MFY).

ANALYSIS OF THE POPULATION DISTRIBUTION AND DEMOGRAPHIC SITUATION IN NUROBOD DISTRICT

Abstract: This article analyzes the population size, distribution, and demographic situation of Nurobod District in the Samarkand region. Key demographic indicators such as natural population growth, migration processes, and age composition are examined. The distribution of the population by Neighborhood Citizens' Assemblies (NCA) and the impact of urbanization processes on the socio-economic development of the district are also highlighted.

Keywords: Population size, age composition, demographic processes, birth rate, mortality, marriage, divorce, migration, urbanization, Neighborhood Citizens' Assembly (NCA).

АНАЛИЗ РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ И ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ НУРОБОДСКОГО РАЙОНА

Аннотация: В данной статье анализируется численность, размещение и демографическая ситуация населения Нурободского района Самаркандской области. Рассматриваются ключевые демографические показатели, такие как естественный прирост населения, миграционные процессы и возрастная структура. Также освещается распределение населения по Собраниям граждан махаллей (СГМ) и влияние процессов урбанизации на социально-экономическое развитие района.

Ключевые слова: Численность населения, возрастная структура, демографические процессы, рождаемость, смертность, брак, развод, миграция, урбанизация, Собрание граждан махалли (СГМ).

Nurobod tumani aholisining joylashuvi va demografik vaziyati tahlili

Kirish: Ma'lumki, har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi soni va uning dinamikasi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholi soni va tarkibi davlatning iqtisodiy salohiyatiga, innovatsion rivojlanishiga va turli sohalarda ixtisoslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining bandligi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, turmush darajasi ko'rsatkichlarini va jahon bozoridagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Aholining yosh tarkibini oldindan prognozlash orqali, turli yosh guruhlariga — bolalar, mehnat yoshidagilar va keksalar uchun zarur bo'lgan xizmatlar va dasturlarni shakllantirish mumkin. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlari ehtiyojlarini qondirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, Nurobod tumanida demografik vaziyatni tahlil qilish, aholining kelajakdagi ehtiyojlarini belgilash va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Aholining o'sish dinamikasi

Yili	Aholi soni (ming kishi)
2003	98.7
2021	152.7
2024	162.649



Asosiy qism: Nurobod tumani Samarqand viloyatining muhim ma'muriy-hududiy birliklaridan biri bo'lib, uning umumiy maydoni 4,79 ming km², 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Samarqand viloyati Nurobod tumanining doimiy aholi soni 162,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 3,2 ming kishiga yoki 2,0 foizga ko'paydi. Samarqand viloyati aholisi 4 208 000 kishini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichning 3,87 % qismi Nurobod tumaniga to'g'ri keladi.

Nurobod tumanida erkaklar 82 100 kishi, ayollar 80 600 kishi (49,5 % ayollar va 50,5 % erkaklar) tashkil etgan. Demak, Nurobod tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanda 39 ta mahalla fuqaro yig'ini mavjud. Asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, tojik, tatar, ukrain va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Tumandagi demografik jarayonlarni chuqur tadqiq etish va tahlil qilish hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha samarali rejalashtirish imkonini beradi. Xususan, aholi sonining o'sishi, yosh tarkibining o'zgarishi va migratsiya jarayonlari tumanning infratuzilma rivojlanishiga, turar-joy majmualari, ta'lim va tibbiyot muassasalari qurilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tuman aholisi taqsimoti: Nurobod tumani aholisining MFYlar bo'yicha taqsimoti quyidagi uchta asosiy toifaga ajratilgan:

Aholining umumiy soni va jinsiy taqsimoti (2024-yil 1-yanvar holati)

Ko'rsatkich	Qiymati
Umumiy aholi soni	162,649 kishi
Erkaklar	82,086 kishi
Ayollar	80,563 kishi

1. Yirik MFYlar (5000 dan ortiq aholi yashaydi)

Tumanda bunday MFYlar soni 10 ta, bu esa umumiy MFYlarning 37% qismini tashkil etadi. Ushbu MFYlarda jami 50 000 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ushbu hududlar yaxshi rivojlangan infratuzilma va zich aholi yashash darajasi bilan ajralib turadi. Mazkur toifaga kiruvchi MFYlar qatoriga Sharq Yulduzi, Jom, Po'latchi, Yuksalish, Nurbuloq, Nurdum, Arabota, Saxoba, O'rtabuz, Olg'a kabi mahallalar kiradi.




2. O‘rta kattalikdagi MFYlar (3000–5000 aholi yashaydi)

Tumandagi MFYlarning eng katta qismini tashkil etadi, ya’ni 22 ta mahalla mavjud bo‘lib, bu 53% ulushga ega. Ushbu MFYlarda jami 70 000 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Tumanning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi ushbu mahallalar qatoriga Navro‘z, Amir Temur, Sarikul, Mehnatkash, Oqsoy, Sariosiyo kabi MFYlar kiradi.

3. Kichik MFYlar (3000 dan kam aholi yashaydi)


Tumanda bunday MFYlar soni 7 ta bo‘lib, umumiy ulushi 10% ni tashkil etadi. Ushbu MFYlarda jami 15 000 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu toifadagi MFYlar ko‘pincha qishloq hududlarga yaqin joylashgan bo‘lib, ularga Chortut, Lolazor, Nurafshon, Chorvador, Navbahor, Bog‘iston kabi mahallalar kiradi. Hududiy aholi zichligi: Tuman umumiy maydoni 4,79 ming km² bo‘lib, o‘rtacha aholi zichligi 33 kishidan ortiq/km² ni tashkil etadi. MFYlar aholisi soni bo‘yicha turlicha taqsimlangan bo‘lib, yirik MFYlar aholining katta qismini o‘zida jamlagan.



Innovation House



Samarqand viloyati bo‘yicha aholi zichligi 2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



Samarqand viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha 251,0 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 5,4 kishiga ortgan (2023-yilda 1 kv.km.ga 245,6 kishi). Shahar va tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Kattaqo‘rg‘on shahrida 9 490,0 kishi, Samarqand shahrida 4 876,7 kishi, Toyloq tumanida 789,6 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Nurobod tumani 33,5 kishi, Qo‘shrabot tumani 65,7 kishi, Paxtachi tumani 110,4 kishini tashkil etgan.

Xulosa va takliflar:

Tahlil natijalariga ko‘ra, Nurobod tumanida aholi zichligi asosan o‘rta va yirik MFYlarda yuqori bo‘lib, kichik MFYlarda nisbatan kam aholi yashaydi. Tumanning barqaror rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi: MFY infratuzilmasini rivojlantirish: Aholi soni ko‘payib borayotgan MFYlarda transport, aloqa, kommunal xizmatlar va ta‘lim muassasalarini rivojlantirish lozim. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish: Kichik MFYlarda ish



o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Demografik o‘shni kuzatish: Aholi sonining o‘shish dinamikasini muntazam tahlil qilib borish va rejalashtirilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Nurobod tumani MFYlarining aholi soniga ko‘ra taqsimlanishi tumanni kompleks rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va hududiy muvozanatni saqlash maqsadida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi
Veb-sayt: stat.uz
2. Nurobod tumani hokimligi rasmiy veb-sayti
Veb-sayt: nurobod.uz
3. Vikipediya: Nurobod tumani (Samarqand viloyati)
Havola: https://uz.wikipedia.org/wiki/Nurobod_tumani
4. Samarqand viloyati hokimligi rasmiy veb-sayti
Veb-sayt: samarkand.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

Research Science and Innovation House